



TALIM-TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMPITENTLIKKA QO’YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Nurullayeva O’g’ilxon Ergashboyevna

Turan International University

Gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti

o’qituvchisi

ANNOTATSIYA: Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega bo’lsada, shuni alohida ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lmaydi, sababi, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo’llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Pedagoglarni har tamonlama professional va pedagogik kompitentlik xususiyatlarini rivojlantirish orqali ularda bor iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlariga erishishimiz mumkin.

KALIT SO’ZLAR: pedagog, mutaxassis, qobiliyat, professionallik, kompitentlik, shaxs,bilim, ko’nikma, malaka, pedagogik mahorat, faoliyat, kasbiy savodxonlik, pedagogik qobiliyat.

АННОТАЦИЯ: Хотя понятия профессионализм и компетентность имеют общие черты, следует отдельно отметить, что люди, полностью соответствующие требованиям и стандартам, не являются по-настоящему профессионалами, поскольку некоторые не умеют применять знания на практике, поэтому не умеют. такая педагогическая деятельность остается неэффективной. Мы можем помочь учителям раскрыть свои таланты и способности через развитие профессионально-педагогических компетенций.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: педагог, специалист, способности, профессионализм, компетентность, личность. знания, умение, квалификация, педагогическое мастерство, активность, профессиональная грамотность, педагогические способности



ABSTRACT: Although the concepts of professionalism and competence have common features, it should be noted separately that people who fully meet the requirements and standards are not truly professionals, because some do not know how to apply knowledge in practice. they do not know, so such pedagogical activity remains ineffective. We can help teachers to bring out their talents and abilities through the development of professional and pedagogical competencies.

KEY WORDS: pedagogue, specialist, ability, professionalism, competence, person. knowledge, skill, qualification, pedagogical skill, activity, professional literacy, pedagogical ability

Bugungi kunda zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi sifatida – jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni va bugungi kun talablariga to‘liq javob bera oladigan shaxsni tushunishimiz mimkin. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashda biz pedagoglarning kompetentlik darajasiga alohida e‘tibor muhim ahamiyatga ega.[1] Bu kabi amaliy faoliyatlarni amalga oshirish uchun esa biz doimo izlanishda va yangi bililarni o’zlashtiruvchi shaxslarni tushunishimiz muhim. O’zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida olib borilayotgan ta’lim islohotlarini amalga oshirish va ta’lim tizimiga joriy qilishda pedagog kadrlarning salohiyati va bilim ko’nikmalariga tayanamiz. Ularning salohiyati va bilim darajasi ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning asosini tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashda mehnat bozori talablaridan kelib chiqqan holda, islohotlarni amalga oshirish va ulkan zafarlar sari harakat qilish va kutulgan natijaga tez va qisqa muddatda erishishni ko’zlamoqda. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasasining vazifasi, biz yuqorida tilga olib o‘tgandek raqobatbardosh, kompetentli o‘qituvchi pedagoglarni tayyorlashdan iboratdir. Shiddat bilan o‘zgarib borayotgan oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan va kelajakda shu soha bo'yicha o'zining bor kuchi va g'ayratini ko'rsata oladigan, o'z kasbiy vazifalarini mustaqil va ijodiy yecha oladigan o‘qituvchi pedagolgarga bizning ta’lim-tarbiya jarayonlarimizda talab kuchayib bormoqda. Bu kabi vazifalarga erishishimizda biz o’z iqtidoridan foydalana oladigan yangiliklar va



bugungi kun talablariga javob bera oladigan pedagog mutaxassislarga ehtiyoj sezamiz. Mutaxasislarga bo’lgan ehtiyojni o’rnini to’ldirish uchun biz Oliy ta’lim muassasalarida tayyorlaydigan mutaxassislarni o’qitish va bilim ko’nikma va malakalarini oshirishda ularda pedagoglik kompitentlikning turli xususiyatlarini rivojlantirishga o’z etiborimizni qaratishimiz lozim.

Yuqorida keltirilgan dolzarb masalalalni xal qilishda dastlab biz kompetentlikning mezonlari qanday, o’qituvchi kasbiy tayyorgarligi qanday bo’lishi lozim, degan savollarga javob berishimiz kerak.

Zamonaviy rivojlangan jamiyat ta’lim tizimi o’z oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma’naviy va jismoniy sog’lom shaxslarni tarbiyalab berish va jamiyat talablariga javob beruvchi mutaxassislarni yetishtirish talabini qo‘yadi. Davlatimiz raxbari 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi dasturida “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, Oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish” vazifasi asosiy vazifalardan biri sifatida e’tirof etdilar va mutaxassislarga alohida muhim vazifalar yuklatildi. Bugungi kunda Oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar salohiyatiga, xususan ularning bilim salohiyatiga alohida talablar qo’ymoqda.

Belgilab qo’ylgan vazifalarni bajarish davomida bizning oldimizda kompetentli pedagog - u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug’iladi. Shu nuqtai nazardan “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalar mazmun mohiyatiga alohida to’xtalib o’tamiz.[2]

Hozirgi kunda faoliyat yurutuvchi pedagog mutaxassislarimiz ham “kompetentlik” nimani anglatishini to’liq anglamasdan bu tushunchani “kompetensiya” tushunchasi bilan adashtirib yuborishmoqda, xo’sh ikki tushuncha bir-biridan nimasi bilan farq qilishini bilib olsak. “Kompetentlik” tushunchasi pedagog mutaxassislarning ma’lumoti, ko’nikmasi, qobiliyati va tajribasini o’z ichiga olgan faoliyat turi bo’lib, boshqacha aytganda, uning ma’lum bir ish turini bajarish qobiliyati hisoblanadi. Aslida, ikkala atama o’xshashdir. Kompetensiya bilimlarning umumiyligi



va ularning odamlarda mavjudligini angatsa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi. Pedagogning faoliyat jarayonida o’z aksini topuvchi xususiyatdir.[3]

Bugungi kunda kompetensiyalar ta’rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud bo’lib ular quyidagilardir: amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi. Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya’ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko‘riladi.[3]

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o’rta ta’limning Davlat Ta’lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish uchun bo’lajak kadrlar salohiyatini o’rganish va asosiy funksiyalarni to‘g’ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o’sishi uchun qaysi yo‘nalishda harakatlanishlarini aniq ko’rsatish va ularda ko‘nikma hosil qilish kerak. Buning uchun pedagoglar o’zlarida professionallik va kompetentlikni rivojlantira olishlari kerak. Professionallik va kompetentlikni bir-biriga o‘hshash bo‘lsada, har xil ma’noga ega bo‘lgan xususiyatlardir.

Professionallik deganda nafaqat ma’lum bilimlar, balki mehnatga bo‘lgan munosabat, ishning o‘ziga xos xususiyatlari tushunilsa.

Kompetensiya darhol seziladi, chunki professional pedagog o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo‘llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlikni faqat keng qamrovli baholash va kuzatish jarayonlarida aniqlanishi va qo‘llash mumkin bo’ladi.

Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega bo‘lsada, shuni alohida ta’kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va



standartlarga to‘liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo‘lmaydi, sababi, ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, demak bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo‘lib qolaveradi. Shu kabi to’siqlarni yengish uchun nimalarni amalga oshirish kerak.

Kompetentlik qanday shakllanadi? O‘qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta’lim ko’nikmasini egallashdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko‘nikmalar boshlang’ich kompetensiya darajasini to‘ldiradi.

Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin:

$$K=B=QO=IMQ$$

Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish pedagogning bosqichma-bosqich va doimiy tarzda amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat jarayonlaridan biridir.

Yuqorida aytgan bosqichlarni quyidagicha izohlashimiz mumkin:

- Maxsus ma’lumot olish.
- Amaliy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
- Malaka oshirish, maxsus kurs va treninglardan o‘tish.
- Kasbiy tajribaga ega bo‘lish.
- O‘z sohasida professionallikka erishish.
- Tajriba to‘plash, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan pedagogning kompetentligi yaxshilanadi.

Pedagoglarning kompetentligini baholashda xatti-harakatlarning ko‘rsatkichlariga tayanib ish tutish samaralidir. Aynan shu narsa kompetensiya va kompetentlik orasidagi farqlar nimani anglatishini aniq ko‘rsatib beradi.



Mutaxassislarning malakasini baholash muntazam, mustaqil, maqsadli, shaffof, aniq mezonlarga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa o’rnida shuni ma’lum qilamizki, kompetentlik talablariga javob bermaydigan har bir pedagogni qo‘sishimcha mashg’ulotlarga yuborib, ta’lim muassasasi faoliyatiga asoslangan treninglar o’tkazish maqsadga muvofiqdir, ya’ni pedagoglarni faoliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardandir, chunki kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzliksiz jarayondir. U oliy ta’lim muassasasida boshlanadi va ish joyida tajribali ustozlar nazorati ostida davom etadi. Shuni unutmaslik kerakki, yuqori kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darjasini, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, tajribasi va shaxsiy fazilatlari hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G’aniyev J.G’. Xorijda ta’lim. T: Sharq,1995
2. “Pedagogik kompetentlik” 60110100- Pedagogika (qo‘sishimcha tarbiya fani o‘qituvchisi) o’quv materiali
3. Xoshimov K., Nishanova S. “Pedagogika tarixi”. O’quv qo’llanma. T.:A.Navoiy nomidagi O’zb. Milliy kutubxona nashr.2005
4. Karimov.J. & Kamalova. A. Yoshlar o’rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. Science and Education, 5(2), 513-519.2024.
5. Jo’rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta’lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. Science and Education, 5(3), 490-494.2024.
6. Камалова.А. THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. Экономика и социум, (3-2), 12-14.2024